

FAOL O‘QITISH METODLARI VA ULARNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

Karimova Zarnigor Maxmudjonovna

Kalit so`zlar: *metod, jarayon, faollik, umumlashtirish, rivojlanish, pedagogika, fikrlash, ta`lim.*

KIRISH

Faol o‘qitish metodlari — bu o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullar majmui. Bu metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Bugungi kunda respublika ijtimoiy hayotiga ham tezkor axborot oqimi bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Axborotlami tezkor sur`atda qabul qilib olish, ulami tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdar umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchilarga yetkazib berishni yo’lga qo'yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlovchi yetakchi omil sifatida ta’lim jarayoni e’tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta’lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg’u beramiz. Ta’lim texnologiyasi o‘uvchilar faoliyatini samarali, muvafifaqiyatli tashkil etishga yo’naltirilgan bo’lib, u o‘quvchilarni shaxsiy va pedagog bilan birlashtirishda faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o’zlashtirishlari uchun zarur sharoitlami yaratishga xizmat qiladi.

Faol o‘qitish metodlarining asosiy turlari

Muammoli o‘qitish

- O‘quvchilarga muammoni taqdim etish va uni hal qilish yo‘llarini topishga yo‘naltirish.

- Tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Loyihalar asosida o‘qitish

- Guruh yoki individual loyihalar orqali o‘rganilayotgan mavzuni chuqur o‘zlashtirish.

- Hamkorlik, tadqiqot va ijodkorlikni rivojlaniradi.

Munozara va debatlar

- Mavzular bo‘yicha fikr almashish, argumentlar keltirish va qarshi fikrlarni tahlil qilish.

- Kommunikativ ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni oshiradi.

Rolli o‘yinlar

- Hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlanirish.

- Empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Kichik guruhlarda ishslash

- Guruh a’zolari o‘rtasida bilim almashish, muammolarni birlashtirishda hal qilish.

- Jamoaviy ish ko’nikmalarini rivojlantiradi.
- Faol o‘qitish metodlarining ta’lim sifatiga ta’siri
- Faol o‘qitishni joriy etishda e’tibor beriladigan jihatlar
- O‘quvchilarning yoshiga va qobiliyatiga mos metodlarni tanlash.
- Darsni oldindan puxta rejulashtirish.
- O‘quvchilarни rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash.
- Baholash tizimini faol o‘qitish usullariga moslashtirish.
- O‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish.

XULOSA

Faol o‘qitish metodlari zamonaviy ta’limda samarali vosita bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodlar ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.